

Birlashgan Millatlar
Tashkilotining
Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi
qoidalarining bajarilishini
monitoringi

(KONVENSIYANING 13-MODDASI TALQINIDA)

Toshkent - 2025

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi qoidalarining bajarilishini monitoringi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi

13-modda. Jamoat ishtiroki

1. Har bir ishtirokchi Davlat o'z imkoniyatlari doirasida va o'z ichki qonunchiligining asosiy tamoyillariga muvofiq, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish hamda jamiyat korrupsiya mavjudligi, uning sabablari, xavfli xususiyatlari va yuzaga keltiruvchi tahdidlarini yanada chuqurroq anglashi uchun fuqarolik jamiyat, nohukumat tashkilotlar va jamoatlar negizida faoliyat yurituvchi tashkilotlar kabi ommaviy sektorning tashqarisida alohida shaxslar va guruhlarining faol ishtirokiga ko'maklashish uchun tegishli choralarni ko'radi. Bu kabi ishtirokni quyidagi choralar yordamida mustahkamlash lozim:

a) aholini qarorlarni qabul qilish jarayonlariga jalb qilishga ko'maklashish va uning oshkoraligini oshirish;

b) aholi uchun axborotga ega bo'lishning samarali imkoniyatlarini ta'minlash;

c) aholiga korrupsiyaga nisbatan chidab bo'lmaydigan muhit yaratishga xizmat qiluvchi axborotni etkazishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish hamda ommaviy ta'lim dasturlari, shu jumladan maktab va universitetlarda o'quv dasturlarni amalga oshirish;

d) korrupsiya to'g'risidagi axborotni izlash, olish, e'lon qilish va tarqatish erkinligini hurmat qilish, rag'batlantirish va himoya qilish. Bunday erkinlikning ma'lum cheklovlari belgilanishi mumkin, lekin ular qonunchilikda nazarda tutilgan bo'ladi va quyidagilar uchun zarur:

i) boshqa odamlar huquqlari va obro'sini hurmat qilish uchun;

ii) aholining milliy xavfsizligini yoki ommaviy tartibini, yoki sog'lig'ini saqlash, yoxud axloqini himoya qilish uchun.

Kirish

Mazkur monitoring Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi qoidalarining, xususan, 13-moddasida belgilangan jamoat ishtirokini ta'minlashga doir majburiyatlarning O'zbekiston Respublikasida ijro etilishi holatini o'rganish va baholash maqsadida amalga oshirildi.

Monitoringning asosiy maqsadi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish jarayonlarida fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda aholining, ayniqsa yoshlarning ishtirokini kengaytirishga qaratilgan huquqiy, institutsional va amaliy mexanizmlarning samaradorligini tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Monitoring jarayonida O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilayotgan tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar o'rganildi. Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, axborotga erkin kirish imkoniyatlari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish mexanizmlarining amaldagi holati tahlil qilindi.

Monitoring doirasida to'plangan ma'lumotlar va o'tkazilgan tahlillar BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablariga muvofiqlik darajasini aniqlash, mavjud ijobiy tajribalarni umumlashtirish hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishda eng samarali vositalardan biri bu – keng aholi vakillarida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish hamda davlat organlari va tashkilotlari ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish hisoblanadi.

Bu borada korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlariga aholi, xususan, yoshlar, nodavlat notijorat tashkilotlar faol jalb etilib, respublika va hududlarda davlat organlari faoliyati muvofiqlashtirib borildi.

Asosiy qism

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablariga rioya qilinishi monitoring qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari jalb qilish maqsadida joriy yilning 17-noyabr kuni BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (GJB) hamda O'zbekiston obzorini o'tkazayotgan davlatlar — Nigeriya Federativ Respublikasi va Maldiv Respublikasi ekspertlari tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari ishtirokida uchrashuv tashkil etildi. (https://t.me/antikor_uzb/4129)

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablariga rioya qilinishi monitoring qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari jalb qilish maqsadida bir qator seminarlar tashkil etildi.

Yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish

Yoshlarni korrupsiyaga murosasiz ruhda tarbiyalash va mazkur jarayonga faol jalb qilish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengashning 2024 yil 26 yanvardagi 12-sonli bayonnomasi bilan GRACE dasturini O'zbekistonda joriy etish bo'yicha 2024-2027 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi va ijrosi ta'minlandi.

Ma'lumot uchun: GRACE dasturi BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tomonidan 2021 yilda ishga tushirilgan, korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish tashabbusi hisoblanadi. GRACE dasturining maqsadi – ta'lim va o'zaro hamkorlikdagi loyihalar orqali dunyo yoshlari orasida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish hisoblanadi.

Yoshlar o'rtasida targ'ibot-tashviqot tadbirlari

Birgina **2024 yil davomida** yoshlar va jamoatchilik o'rtasida korrupsiyaning salbiy oqibatlarini targ'ib qilish, uning oldini olish va halollikni mustahkamlashga qaratilgan tizimli targ'ibot ishlari amalga oshirildi.

Agentlik hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishni targ'ib qiluvchi 10 turdagi targ'ibot materiallari (bukletlar, foto, video hamda audio materiallar) ishlab chiqildi.

Mahallalardagi **682 ming nafar** yoshlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish haqida ma'lumot berilgan.

Tadbirlar doirasida **5 mingdan ortiq** yoshlarni jalb etish uchun maxsus targ'ibot kampaniyalari tashkil etildi.

Mahallalarda korrupsiyaning jamiyat va yoshlar hayotiga bo'lgan salbiy ta'siri bo'yicha **1 345 ta** davra suhbatlari o'tkazildi, ushbu suhbatlarda yoshlar, otalar va pedagoglar o'rtasida korrupsiyaning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri haqida o'rganish ishlari olib borildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan **#Stop_korrupsiya** xeshtegi ostida oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida **485 marotaba** chellenj o'tkazildi.

O'tkazilgan chellendlarda **jami 57 142 nafar** xodimlar, professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi hamda mas'ul vazirliklar tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida oliy ta'lim muassasalari, professional ta'lim va akademik litseylar talabalari uchun mo'ljallangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish" maxsus o'quv kursi dasturi, shuningdek, ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari uchun maxsus o'quv kursi dasturi ishlab chiqildi.

NNT va OAVlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ishtirokini kengaytirish

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari, ayniqsa, nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligini oshirish bo'yicha tashkiliy-amaliy jihatdan ko'mak berilib, **34 ta seminar-trening** tadbirlarida **840 nafar**dan ortiq nodavlat sektor, OAV vakillari, jurnalist, blogerlar va boshqa jamoatchilik vakillarining sohaga oid bilim va ko'nikmalari oshirildi.

Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish vazifasi doirasida o'quv-dasturiga "**Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va jamoatchilik monitoringini tashkil etish**" mavzusi kiritildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi bilan birgalikda "**Korrupsiyaga qarshi kurashishda nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtiroki**" mavzusida amaliy muloqot o'tkazildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun "**Korrupsiyaga qarshi kurashishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki: xorij tajribasi**" mavzusida onlayn seminar tashkil etildi.

Agentlik va "Ijtimoiy fikr" markazi tomonidan "**Korrupsiya jamoatchilik fikri ko'zgasida**" ("Fuqarolar O'zbekistonda korrupsiya to'g'risida" mavzusida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari asosida) davra suhbatlari o'tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi BMT TD, Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda Agentlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Ekspertlar guruhi hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida **Yozgi maktab seminari** tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Birgina 2024 yilda Agentlik buyurtmasiga asosan Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan 400 mln so'mlik grant tanlovi e'lon qilindi.

Unda "O'zbekiston inson huquqlari **"Ezgulik"** jamiyati" g'olib deb topilib, Respublikaning 14 ta hududida NNT vakillari uchun **amaliy seminarlar** tashkil etdi.

2025 yil 9–10 iyun kunlari Toshkent shahri, 12–13 iyun kunlari Samarqand shahrida Agentlik, Transparency International Latvia (Delna), Bosh prokuratura, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda bir qator yuridik ta'lim muassasalari hamkorligida korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi (<https://te.antikor.uzb/3665>, <https://te.antikor.uzb/3676>).

Treninglarda ishtirok etgan 130 nafardan ortiq fuqarolik jamiyati vakillari xalqaro va mahalliy ekspertlar tomonidan jurnalistik surishtiruv, OAV va internet orqali korrupsiyani oldini olish va halollikni shakllantirish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ldilar. NNTlar bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilib, ularning imkoniyatlaridan yanalf kengroq foydalanishga oid xulosalar chiqarildi.

2025 yilning 22 oktyabr kuni "Transparency International Latvia" va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan **"Davlat xarajatlarida nazorat qilish va hisobdorlik ta'minoti"** mavzusida seminar tashkil etildi (<https://te.antikor.uzb/4039>).

V Toshkent aksilkorrupsiya forumi doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlariga faol hissa qo'shib kelayotgan NNT sifatida **Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi** taqdirlandi. (https://t.me/antikor_uzb/4056)

2025 yilning 4 avgust kuni Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi "O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish kabi yo'nalishlar hamda hududlarda saqlanib qolayotgan manzilli muammolarni hal etish kabi yo'nalishlarda davlat granti tanlovini e'lon qildi.

Tanlov yakunlariga ko'ra "Buyuk yurt farzandlani" nodavlat notijorat tashkiloti, Xorazm viloyati "Istiqbol" ayollar markazi, "Huquqiy himoya" gazetasi tahririyati, Inson huquqi masalalari markazi Farg'ona viloyati bo'limi, O'zbekiston Jamiyat sudlari assotsiatsiyasi Qoraqalpog'iston filiali loyihalari g'olib deb topildi.

(https://api-ngo.gov.uz/uploads/7b891f5b-f4dd-19f7-a5c7-20ea6871d0c_contest_43.pdf)

O‘zbekistonning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi **PQ-6013-son** Farmoniga muvofiq¹, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari **O‘zbekistonning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy kengashi** va uning hududiy kengashlariga aylantirildi.

Hududiy kengashning vazifalari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi yoki ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi organ va tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan hujjatlarni qabul qilish;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy kengashga qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yuritayotgan mahalliy davlat organlari rahbarlarining hisobot va ma‘ruzalarini eshitish;
- **“korrupsiyaga qarshi immunitetni mustahkamlash maqsadida”** maktablar, kollejar va oliy ta‘lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish fanlarini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, shu mavzuda seminarlar tashkil etish;
- oliy ta‘lim, qurilish, sog‘liqni saqlash va davlat xaridlari sohalarida **“Korrupsiyasiz soha”** loyihasini amalga oshirish, loyiha qamrovini boshqa sohalarga kengaytirish.

Normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda jamoatchilikni jalb qilish tizimi

O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilikni **Normativ-huquqiy hujjatlar** loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga jalb etishning samarali tizimi shakllangan:

- **Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali** tashkil etilgan. Ushbu portal orqali fuqarolar barcha **Normativ-huquqiy hujjatlar**

¹ O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida - <https://lex.uz/docs/-4875784>

loyihalariga o‘z taklif va mulohazalarini qoldirishi mumkin. Davlat organlari **Normativ-huquqiy hujjatlarni** ishlab chiqish jarayonida fuqarolarning taklif va mulohazalarini hisobga oladi.

- Har yili mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan **Davlat dasturi** qabul qilinadi. Uni ishlab chiqishda jamoatchilikning taklif va e’tirozlari inobatga olinadi.
- Davlat dasturi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining ijrosi bo‘yicha jamoatchilik eshituvlari o‘tkaziladi.

Korrupsiyon huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining² **25-moddasiga** ko‘ra (Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlashga doir chora-tadbirlar), korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslar **davlat himoyasiga olinadi** va ularga nisbatan ta‘qib o‘tkazish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Fuqarolarni korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda faollashtirish maqsadida, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi ishlab chiqildi va ushbu tartib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda **829-son qarori**³ bilan tasdiqlandi.

Aholini xabardor qilish va korrupsiyaga nisbatan murosasizlikni shakllantirish

Vakolatli organlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida aholini xabardor qilish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar

² O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida Qonuni - <https://lex.uz/docs/-3088008>

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori - <https://lex.uz/uz/docs/-5193571>

**Quyidagi mazmundagi ma'lumotlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi:**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan mazkur yo'nalishdagi huquqlar yanada mustahkamlandi.

Xususan **33-modda** bilan **axborotni izlash, olish va tarqatish** huquqi kafolatlandi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, shuningdek ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi **81-modda bilan** mustahkamlandi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq **javobgarlikka sabab bo'lishi belgilandi.**

“O'zbekiston – 2030” Strategiyasi:

96-maqсад: *Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish belgilangan.*

O'zbekiston Respublikasining **“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi Qonuni (2014-yil, O'RQ-369-son) :**

- Davlat idoralari faoliyati **to'grisidagi ma'lumotlar, foydalanilishi cheklangan axborot turlari** birinchi bor belgilab berilgan;
- **Axborot foydalanuvchilari** va ularning huquqlari belgilangan;
- Davlat idoralarining **axborot xizmatlari** huquqiy maqomi belgilangan;
- Davlat idoralari faoliyati ochiqligini ta'minlash **usullari** bayon etilgan;
- Davlat idoralariga **rasmiy veb-saytlariga** talablar belgilangan;
- Axborot taqdim etish haqidagi **so'rovlarni ko'rib chiqish tartiblari** belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi **PF-6247-son Farmoni**⁴:

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, axborot olish erkinligini kengaytirish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish maqsadida:

- **hamma davlat organlari**, shu jumladan Hisob palatasi, Markaziy bank, sudlar, prokuratura organlari hamda davlat ulushi 50 % va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari tomonidan ochiq ma'lumot sifatida e'lon qilinishi shart bo'lgan **ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlandi.**

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Farmoni - <https://lex.uz/docs/-5459107>

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi va boshqa idoralarga ochiq e’lon qilinishi kerak bo’lgan ma’lumotlar ro’yxatini kengaytirish bo’yicha takliflar kiritib borish vazifasi yuklatildi.
mazkur Farmonning 11-bandida ko’rsatilgan metodika asosida har yil yakuni bo’yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksi aniqlanadi

Davlat organlarining axborot ochiqligi bo’yicha majburiyatlari

Davlat organlari har yili:

- **1-martga qadar** o’z faoliyati bo’yicha hisobotlarni (*davlat siri va xizmat ma’lumotlaridan tashqari*) rasmiy saytlariga joylashtiradi, **10-martga qadar** jamoatchilik ishtirokidagi muhokama vaqti va joyi haqida xabar beradi;
- **1-aprelgacha** faoliyati bo’yicha hisobotni jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlari o’tkazadi.

2021-yil 1-iyuldan boshlab:

Davlat organlari rasmiy saytlarida va **Ochiq ma’lumotlar portalida** quyidagi ma’lumotlarni joylashtiradi va har chorak yangilaydi:

- amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan to’g’ridan-to’g’ri shartnomalar bo’yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar);
- mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog’liq xarajatlar, bundan davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo’ljallangan ma’lumotlar mustasno);
- O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bilan soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar, shu jumladan individual imtiyozlar berilgan subyektlarning benefitsiarlari (yakuniy manfaatdor jismoniy shaxslari), ular tomonidan to’langan soliqlar va moliyaviy ko’rsatkichlar;
- o’zlarining yillik xarajatlar smetasi va uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish xarajatlari;

Shuningdek, 2021-yil 1-iyuldan boshlab o’z huzurida faoliyat yurituvchi **jamoatchilik kengashlari** bilan birgalikda rasmiy veb-saytlarida quyidagi ma’lumotlarni joylashtirib, ularning har chorakda yangilanib borilishini ta’minlaydi:

- jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a’zolari haqidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma’lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari);

- jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar;
- davlat xaridlarini amalga oshiruvchi komissiyaning tasdiqlangan a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi);
- litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan organlarning hududlar kesimida mas'ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi).

Mazkur ma'lumotlar quyidagi tartibda **Ochiq ma'lumotlar portaliga joylashtiriladi va har chorakda yangilanadi:**

Hisob palatasi, Moliya vazirligi va nazorat organlari tomonidan – har bir o'tkazilgan tekshiruv va reviziya bo'yicha ma'lumotlar (nazorat obykti nomi, reviziya yoki tekshiruvning maqsadi va muddati, uni o'tkazgan davlat xizmatchisining lavozimi, familiyasi, ismi) davlat siri yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa ma'lumotlar himoyasi ta'minlangan holda (tegishli nazorat organi rahbari xabardor qilingandan so'ng) e'lon qilinadi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan – davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan yuridik shaxslar va davlat unitar korxonalari (keyingi o'rinlarda — davlat ishtirokidagi korxonalar) ro'yxati, ushbu korxonalarda davlat nomidan aksiyador (ishtirokchi, egasi) funksiyalarini amalga oshiruvchi tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar, korxonalar joylashgan hudud, STIR raqami va davlat ulushi hajmi; shuningdek, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foiz va undan ortig'i davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxati;

Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan – davlat ishtirokidagi korxonalarining ijro organi a'zolari (direktorlar, boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari) hamda kuzatuv kengashi a'zolarining familiya va ismlari;

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan – davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan yil (chorak) yakuni bo'yicha to'langan dividendlar haqida ma'lumotlar;

Moliya vazirligi tomonidan – davlat ishtirokidagi korxonalariga davlat byudjeti mablag'laridan ajratilgan mablag'lar, jalb etilgan xorijiy mablag'lar, shu jumladan davlat tashqi qarzi summalari va ularning sarflanishi haqidagi ma'lumotlar;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan – davlat muassasalari ro'yxati (tashkil etilgan sana, yuqori turuvchi organ) hamda davlat mulkini xususiy lashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar (davlat siri hisoblangan maxsus muassasalar bundan mustasno).

Qo‘shimcha ravishda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarni kiritish maqsadga muvofiq:

– “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon (2022-yil, PF-154-son);

– “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon (2023-yil, PF-200-son);

– “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror (2018-yil, PQ-3837-son);

– “O‘zbekiston Respublikasida ochiq ma‘lumotlar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror (2020-yil, 808-son);

– “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror (2021-yil, VMQ-373-son);

– “Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta‘minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilishini masofadan monitoring qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaror (2024-yil, VMQ-910-son).

Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuklangan qo‘shimcha vazifalar

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash sohasidagi vazifalarni samarali bajarish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatilgan:

- davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha doimiy monitoringni olib borish, jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan internetda e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar bo‘yicha ularning majburiyatlarini hisobga olish;
- ommaviy axborot vositalari orqali davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish choralarini ishlab chiqish va joriy etishga ko‘maklashish;
- “Mening fikrim” umumxalq muhokamasi portalida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida davlat organlari faoliyati ochiqligi va shaffofligiga oid dolzarb masalalarni muhokamaga qo‘yish;
- ochiq ma‘lumotlar sifatida e‘lon qilinishi shart bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxatini uzluksiz to‘ldirish,

takomillashtirish va yangilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va uni amalga oshirishga ko'maklashish;

- ommaviy axborot vositalari orqali davlat xizmatchilari orasida **“ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik madaniyatini”** shakllantirish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalq oldidagi hisobdorligi ahamiyatini tushuntirish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish.

“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonga muvofiq berilgan vazifalarni kiritish maqsadga muvofiq (2025-yil, PF-270-son).

Normativ-huquqiy hujjatlarni jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi **PQ-3666-son qaroriga**⁵ muvofiq, 2018-yil 1-maydan boshlab normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari jamoatchilik muhokamasi uchun **regulation.gov.uz** portaliga joylashtirilishi shart.

Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun

Davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2018-yil 12-aprelda **“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun**⁶ qabul qilingan.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosini ta’minlash, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida 2015-yil 6-noyabrda Vazirlar Mahkamasining **320-son qarori**⁷ qabul qilingan. Ushbu qaror bilan Qonun normalarini amalga oshirishga qaratilgan **chora-tadbirlar** tasdiqlangan va ijroga qabul qilingan.

Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish va monitoring qilish uchun **Jamoatchilik kengashi** tashkil etilgan.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida Qarori - <https://lex.uz/docs/-3681790>

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida Qonuni - <https://lex.uz/docs/-3679092?ONDATE=13.04.2018>

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori - <https://lex.uz/docs/-4290724>

Mazkur Kengash davlat organlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash metodikasini, shuningdek, ochiqlikni ta'minlash bo'yicha reglamentni ishlab chiqqan.

Ushbu hujjatlar asosida Jamoatchilik kengashi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash ishlarini boshlagan.

2016-yil yanvar oyidan boshlab Jamoatchilik kengashi, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi, respublikadagi milliy OAV va axborot sohasida faoliyat yurituvchi NNTlar bilan hamkorlikda davlat organlari faoliyati ochiqligini **monitoring qilish va baholash tizimini** joriy etgan.

O'zbekiston tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, davlat organlarining "ochiqlik indeksi" reyting ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, umuman olganda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ochiqlik to'g'risidagi qonun talablarini samarali qo'llash bo'yicha katta ishlar olib bormoqda, davlat organlari tasarrufidagi ijtimoiy ahamiyatga molik axborotdan fuqarolarning foydalanishi uchun qonunda belgilangan sharoitlar yaratilmoqda.

"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun⁸ga ko'ra jamoatchilik nazoratining subyektlari quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlari;
- belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan OAV.

Jamoatchilik nazorati shuningdek jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoat tuzilmalari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Jamoatchilik nazoratining obyekti davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining quyidagi yo'nalishlardagi faoliyatidir:

- qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, qarorlar va davlat, tarmoq hamda hududiy rivojlanish dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini inobatga olish;
- fuqarolar, yuridik shaxslar hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonun talablari bajarilishini ta'minlash;
- ijtimoiy va jamoat manfaatlariga daxldor vazifalar va funksiyalarni bajarish;
- davlat xizmatlarini ko'rsatish;
- ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlar ijrosi.

⁸ O'zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to'g'risida Qonuni - <https://lex.uz/docs/-3679092?ONDATE=13.04.2018>

Jamoatchilik nazorati shakllari quyidagilardan iborat:

- davlat organlariga murojaat va so‘rovlar yuborish;
- davlat organlarining ochiq kollegial yig‘ilishlarida qatnashish;
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik tinglovi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o‘rganish;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan mansabdor shaxslarning hisobot va axborotlarini eshitish.

Alohida ta’kidlash joizki, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari odatda ularni ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan **regulation.gov.uz** portaliga joylashtiriladi va jamoatchilik muhokamasi o‘tkaziladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining **“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuniga** muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

ular tomonidan taqdim etiladigan axborotning ommabopligi, o‘z vaqtida berilishi va ishonchliligi;

faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risida axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati haqida axborot taqdim etishda fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilinishidan, ularning shaxsiy hayotiga aralashuvdan, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslarning ishchanlik obro‘sigacha putur etkazilishidan himoya qilish huquqlariga rioya etish.

Qonunning 9-moddasiga ko‘ra davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati haqidagi axborot manbalari quyidagilar hisoblanadi:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy nashrlari;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlari hamda ular vakolat bergan mansabdor shaxslarning chiqishlari va bayonotlari;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari axborot xizmatlarining xabarlari;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlari materiallari;

– ommaviy axborot vositalari materiallari.

Shunga qaramasdan, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kengaytirish hamda ularning rolini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi yetarli darajada emasligicha qolmoqda. Xususan, fuqarolik jamiyati institutlarining normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini monitoring qilish jarayonlarida ishtiroki tizimli va barqaror tus olmagan, ularning tashabbuslari esa amaliy qarorlar qabul qilish jarayonida yetarli darajada inobatga olinmayapti.

Mazkur holat korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazoratining to'liq shakllanmaganligi, fuqarolik jamiyati institutlarining institutsional va moliyaviy salohiyati cheklanganligi, shuningdek, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi bilan izohlanadi. Natijada, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan olib borilayotgan tahliliy tadqiqotlar, jamoatchilik monitoringi va profilaktik tadbirlarning real ta'sir darajasi past bo'lib qolmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirish maqsadida davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda nodavlat sektorning boshqa vakillari o'rtasida tizimli va institutsional hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Bunda, ularning o'zaro axborot almashinuvi, qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining fikr va takliflarini majburiy tartibda ko'rib chiqish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni yoritish hamda jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini kuchaytirish, ularning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash va moddiy-texnik hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining real ta'sirchanligini oshirishga, shuningdek, ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muammolar va takliflar:

T/r	Muammolar:	Takliflar:
1.	<p>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini yanada ochiqlash.</p> <p>Oliy Majlisi huzuridagi grant loyihalarini tanlab olish va baholash jarayonida qo'llaniladigan mezonlar, ball berish tizimi hamda ustuvor ko'rsatkichlar jamoatchilik uchun yetarli darajada ochiq va aniq shaklda e'lon qilinmayapti.</p> <p>Natijada grant tanlovlarida ishtirok etayotgan subyektlar loyiha takliflarini aynan qaysi talablar asosida tayyorlashi va baholanishi lozimligi borasida to'liq va tushunarli axborotga ega bo'lmayapti. Bu holat tanlov jarayonining shaffofligi va xolisligiga bo'lgan ishonchni pasaytirib, grantlar taqsimotida subyektiv yondashuv ehtimolini oshirmoqda.</p> <p>Shuningdek, grant loyihalarini baholovchi ekspertlarning xulosalari va berilgan ballar bo'yicha umumlashtirilgan axborot jamoatchilikka taqdim etilmaydi.</p> <p>Rad etilgan loyihalar yuzasidan qarorlarning asoslantirilmaganligi, ya'ni rad etish sabablari ariza beruvchilarga aniq va yozma shaklda yetkazilmasligi, grant tanlovlarida ishtirok etuvchi tashkilotlarning o'z faoliyatini tahlil qilishi va kelgusida sifat jihatidan takomillashtirish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda.</p> <p>Bundan tashqari, grant baholash jarayonida ishtirok etuvchi ekspertlar tarkibi, ularning tanlanish mezonlari hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan choralar haqida ochiq ma'lumotlarning mavjud emasligi baholash jarayonining xolisligiga nisbatan savollar tug'diradi.</p>	<p>Grant loyihalarini baholash jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida, avvalo, grant tanlovlari e'lon qilinayotganda baholash mezonlari, ball berish tizimi va ustuvor yo'nalishlar aniq va batafsil ko'rsatib o'tilgan holda rasmiy manbalarda e'lon qilinishi lozim. Ushbu mezonlar normativ-huquqiy hujjatlar yoki tanlov hujjatlarining ajralmas ilovasi sifatida belgilanishi grant tanlovlarining ochiqligini ta'minlashga xizmat qiladi.</p> <p>Shuningdek, grant tanlovlari yakunlari bo'yicha ekspertlar tomonidan berilgan ballar va xulosalarning umumlashtirilgan natijalari ochiq e'lon qilinishi, rad etilgan loyihalar bo'yicha esa asoslantirilgan yozma xulosalar ariza beruvchilarga taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu grant tanlovlarida ishtirok etuvchi subyektlarning kelgusida loyiha sifatini oshirishiga hamda tanlov jarayoniga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.</p> <p>Baholash jarayonida ishtirok etuvchi ekspertlar tarkibi, ularning kasbiy malakasi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga doir deklaratsiyalarini ochiq e'lon qilish, shuningdek, baholash jarayoniga fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari vakillarini kuzatuvchi sifatida jalb etish mexanizmlarini joriy etish zarur. Shu bilan birga, grant loyihalarini baholash jarayonini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan ball berish va reyting tizimini joriy etish orqali subyektiv omillarni minimallashtirish mumkin.</p> <p>Yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etish grant loyihalarini baholash jarayonida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga, shuningdek, jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.</p>
2.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy va hududiy kengashlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, ularning qarori va ijrosi yuzasidan Jamoatchilik to'liq xabardor emas.</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy va hududiy kengashlarining yig'ilishlarini Internet tarmog'ida jonli e'firda uzatish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p> <p>Milliy va hududiy kengash qarorlarini mos ravishda Oliy Majlis Senati va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i</p>

	<p>Milliy va hududiy kengash yig'inishlari hamda ularning qarorlari fuqarolar uchun ochiq emas.</p> <p>Bundan tashqari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari Aksilkorrupsiya tarmog'ining Istanbul harakatlar rejasi 5-bosqich monitoringi savolnomasi va monitoring yakunlari yuzasidan tavsiyalarida Milliy kengash va hududiy kengashlar faoliyatining ochiqligi va uning yig'inishlarida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash yuzasidan takliflar bildirilgan.</p>	<p>Kengesi, viloyat va Toshkent shahar hokimligi veb-sayti hamda kengash.gov.uz portalida ochiq e'lon qilib borish.</p> <p>Mazkur talablarni Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritish.</p>
<p>3.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikda “jurnalistik surishtiruv” tushunchasi huquqiy jihatdan aniq belgilanib berilmagan. Natijada jurnalistlar tomonidan olib boriladigan tekshiruvlar, dalil to'plash va tahliliy surishtiruv faoliyatining huquqiy maqomi noaniq bo'lib qolmoqda. Bu esa, ularning ma'lumot manbalarini himoya qilish, axborot to'plash jarayonida bosim yoki tazyiqlardan himoyalaniş masalalarida huquqiy bo'shliqni yuzaga keltiradi. Shu sababli surishtiruv jurnalistikasini rivojlantirish va korrupsiyaviy holatlar yuzasidan mustaqil tahliliy materiallar tayyorlashda muammolar saqlanib qolmoqda.</p> <p>Korrupsiyaga murosasizlik reytingida yuqori o'rinlarda turgan mamlakatlarda OAV va ular tomonidan amalga oshiriladigan “jurnalistik surishtiruv” lar korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.</p> <p>Ma'lumot uchun: 2007 yil 26 sentyabrdagi Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasining jurnalistik surishtiruvni himoya qilish va rag'batlantirish to'g'risidagi deklaratsiyasida “Jurnalistik surishtiruv” tushunchasiga ta'rif berilgan. (https://vzs.ba/en/declaration-on-the-protection-and-promotion-of-investigative-journalism/)</p>	<p>1. “Jurnalistik surishtiruv” tushunchasini qonunchilikda aniq belgilash</p> <p>O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari va jurnalistlik faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida “Jurnalistik surishtiruv” tushunchasini qonunchilikda aniq belgilash</p> <p><i>“Jurnalistik surishtiruv — jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan korrupsiya, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, qonun buzilishlari va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega holatlarni aniqlash maqsadida jurnalist tomonidan mustaqil ravishda olib boriladigan, axborot to'plash, tekshirish, tahlil qilish va e'lon qilish faoliyatidir.”</i></p> <p>Bu norma surishtiruv jurnalistikasining huquqiy maqomini aniqlashtiradi va uni oddiy axborot berishdan farqlaydi.</p> <p>2. Jurnalist-surishtiruvchilarning maxsus huquqiy kafolatlarini belgilash</p> <p>Qonunchilikda quyidagi kafolatlarini mustahkamlash zarur:</p> <ul style="list-style-type: none"> • jurnalistning axborot manbasini oshkor etmaslik huquqi (sud qarorisiz majburiy ochiqlash taqiqlanishi); • surishtiruv olib borayotgan jurnalistga nisbatan bosim, tazyiq, ta'qib va intimidatsiya uchun alohida javobgarlik choralarini belgilash; • davlat organlarining surishtiruv doirasidagi axborot so'rovlariga

		<p>belgilangan muddatlarda javob berish majburiyati.</p> <p>Bu choralar jurnalistlarning mustaqil va xavfsiz faoliyat yuritishini ta'minlaydi.</p> <p>4. Surishtiruv jurnalistikasini institutsional qo'llab-quvvatlash</p> <p>Amaliy jihatdan quyidagi tashkiliy choralar muhim hisoblanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • korrupsiyaga qarshi kurash doirasida jurnalistik surishtiruv grantlari va maxsus tanlovlarini joriy etish; • jurnalistlar uchun axborot xavfsizligi, dalillar bilan ishlash va huquqiy himoya bo'yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish; • nodavlat OAV va mustaqil jurnalistlar faoliyatiga moliyaviy va texnik ko'mak mexanizmlarini ishlab chiqish.
--	--	--

Xulosa

O'tkazilgan monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, xususan, uning 13-moddasida belgilangan jamoat ishtirokini ta'minlash, oshkoralikni kuchaytirish va aholining korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish bo'yicha tizimli va izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va yoshlarning korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlaridagi ishtiroki kengayib borayotgani qayd etildi. Xususan, GRACE dasturi doirasida yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan ta'limiy va tarbiyaviy mexanizmlar joriy etilib, targ'ibot-tashviqot ishlari keng miqyosda olib borilmoqda.

Monitoring davomida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayoniga jamoatchilikni jalb etish, davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, axborotga erkin kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat organlari hisobdorligini oshirish bo'yicha mustahkam huquqiy va institutsional asoslar yaratilgani aniqlandi. Davlat organlari faoliyatining ochiqlik indeksi, ochiq ma'lumotlar portali, jamoatchilik muhokamalari va jamoatchilik kengashlari ushbu jarayonning muhim instrumentlari sifatida faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, monitoring natijalari fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi salohiyatidan yanada kengroq va tizimli foydalanish, jamoatchilik nazoratining amaliy ta'sirchanligini oshirish, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish mexanizmlarini amaliyotda yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablariga mos keladi hamda ushbu yo'nalishdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

O'zbekiston UNCAC 13-moddasi talablarini bajarish yo'lida jiddiy institutsional va qonuniy islohotlarni amalga oshirdi. Ochiklik, shaffoflik, jamoatchilik ishtiroki va fuqarolik nazoratini rivojlantirish bo'yicha yuritilayotgan ishlar tizimli va qamrovli xarakterga ega.